**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**

**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori**

**______________ A.Mansurov**

**202_4_ yil "30" avgust**

*Ro'yxatga olindi: № BD 60211400-1.20*

# SAHNA MAHORATI

# FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** **200 000 - San'at va gumanitar fanlar**

**Ta'lim sohasi:** **210 000 - San'at**

**Ta'lim yo'nalishi:** **60211400 - Vokal san'ati: estrada xonandaligi**

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi<br>SM1410 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>5-8 | ECTS-Kreditlar<br>10 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>2-4 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | **Sahna mahorati** | **150** | **150** | **300** |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Bugungi kunda dunyoda intensiv tarzda kechayotgan barcha sohadagi jarayonlar inson tafakkuri jadallik bilan kengayishiga, yangi, avval notanish bo'lgan ma'lumotlarni anglab, o'z maishiy va kasbiy faoliyatida ishlata olishga harakat qilishga, shu bilan bir qatorda, ushbu tafsilotlarga ega bo'lgan ishdan so'ng ma'naviy hordiq chiqarishga bo'layotgan talabning kuchayishi – zamon talabi bo'lib bormoqda. Bakalavriat bosqichi uchun tuzilgan ushbu moslashish jarayonda bo'lajak xonandalar tarbiyalanishida mazkur dasturning o'rni beqiyosdir.

"Sahna mahorati" fani umumkasbiy fan hisoblanadi. Estrada xonandalarni dunyo standartlariga javob beradigan bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tarbiyalashda sahna harakati bilimlarining o'rni kattadir. Shu bilimlarni berish maqsadida grim va sahnaviy obraz fanining o'quv rejaga kiritilganligi uning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilaydi.

"Sahna mahorati" fanining maqsadi - Estrada xonandaligi ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan xonanda-talabalarga spektakl (myuzikl) ustida ishlash jarayonida qahramon tashqi qiyofasini yaratishdagi mahorat ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat. "Sahna mahorati" fani ixtisoslik fanlari qatorida talabalar o'z ixtisosligini egallashda, professionallik mahoratini oshirishda, ijrochilik madaniyatini shakllantirishda yordam beradi. Talabaning malakali mutaxassis bo'lib yetishishida grim asoslari fanining roli katta. Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalarning turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talabalarga o'quv jarayonida dastavval grim bilan bog'liq elementlardan nazariy va amaliy ma'lumot beriladi.

## II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)
## II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

## V-VIII SEMESTRLAR

### 1-modul. Sahna harakati asoslari.
### Kirish.1-mavzu. Sahna ijrochiligi mahoratida murakkab mashqlar.

Mashqlar avval mata ustida so'ngra polda bajariladi. Oldinga o'ng yelka orkali umbalok oshish. Daslabki xolat: oyoklar juft bosh oldinga karagan. Ijro texnikasi. O'ng oyok bir kadam tashlanadi. Gavda o'ng oyokka tayanib ikki ko'l kaft bilan yerga tiraladi. O'ng oyok tizzasi tirsakdan tashkari tomonga olinadi va o'ng tirsak ichkari tomonga bukiladi. Bosh chap tomonga tortilib, butun gavda o'ng yelka ustidan aylanib oldinga utadi. Oldinga utish jarayonida o'ng oyok tizzasi bukilsa, gavda uz aylanish teligi bilan avval o'ng oyokka so'ngra chap oyokka tiralib kad rostlanadi. Metodik ko'rsatmalar. Yelka orqali umbalok oshgan xar ikki ko'l kafti yerdan uzilmasligi kerak. Og'irlik avval kaftlarga, keyin yelkaga utadi. Boshni polga urmasdan yelka usidan yengil dumalanadi. Ushbu mashq avval sekin so'ngra tez bajariladi. Mashqni davom ettirish uchun yana bir kadam oldinga tashlab bajariladi.

### 2-mavzu. Obraz ustida ishlash.

Ilgariroq aytib o'tilganidek, sahna mahorati obrazi birdaniga paydo qilinmaydi, balki asta-sekinlik bilan, aktyorning "ikkinchi men"ni hosil qilish barobarida shunga parallel ravishda yaratiladi. Repetitsiyadan repetitsiyaga qarab mukammallashib, bir holatdan boshqasiga o'tib, aktyorga rolning mazmunini to'laqonli ochishga va tomoshabinga yetkazishga yordam beruvchi vositaga aylana boradi.

### 2-modul. Grim.
### 3-mavzu. Grim haqida tushuncha.

«Grim» frantsuzcha «grime», italyancha «grumo» co'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson yuzida ajin qilish degan ma'noni bildiradi. Grim tomosha san'atida ishtirok etadiganlarning qiyofasini ijro etiladigan obrazga moslab o'zgartirish san'atidir. Grim pesa yoki stsenariyning badiiy xususiyatlari, obrazli yechimi, qahramonlarning fe'l-atvori, aktyor va

rejissyorning ijodiy maqsadiga qarab xilma-xil bo'ladi.

Grim – dramaturg, rejissyor, aktyor va rassomning badiiy g'oyasini tomoshabinga yetkazib beruvchi asosiy ifoda vositalaridan biridir. Aktyor uchun grim ikki xil ahamiyatga ega. Birinchidan, obrazni ichki dunyosini aktyorning tashqi ko'rinishidagi aks ettirilishi bo'lsa, ikkinchidan, grim aktyorga ijro etilayotgan obrazni xarakterini ochib beradi, rolga badiiylik bag'ishlaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu tushunchani o'z asl nomi bilan «grim» deb atalishi to'g'ri bo'ladi.

**4-mavzu. Grimni asosiy tashkil kiluvchi bo'laklari. Grim. Pastij. Turmaklash.**

Grim qilish uslubiga grim bo'yoqlarini qanday qilib va qay holatlarda ishlatilishini, yuzning qaysi qismiga qaysi ranglarni surtishni bilish kabilar kiradi.

**5-mavzu. Grimxona. Grim anjomlari grim gigienasi. Grim qutichasi. Issik va sovuk ranglar. Ton tushunchasi. Grim sxemalari.**

Grim bo'yoqlari. Korxonalarda chiqadigan quticha – to'plamlarda ishga kerakli barcha rangdagi bo'yoqlar bo'ladi. Shu jumladan, bir nechta umumiy ranglar, ya'ni yuzning rangini o'zgartiruvchi tananing turli tusidagi bo'yoqlar ham mavjud. Hammasi bo'lib sotuvda umumiy tusning 12 ta raqamli xillari bor: 1, 2, 3 va h.k. Ularning rangi och badan rangidan tortib jigarranggacha bo'ladi.

Yupqa kichik cho'tkalar, dumaloq va yassi – 2, 4, 6-sonli. Ular yordamida ko'zga chizgilar, ajinlar chiziladi va h.k. Lak – mo'ylovlar, soqollar, kipriklar va shu kabilarni yopishtirish uchun. Mastika (gumoz) – burun yasash uchun.

Sartaroshlik qaychisi, metal taroq. Qisqichlar – soch turmaklash uchun, qisqichlarni ishlatish uchun elektr plitkasi. Krepe – chilvirda maxsus o'ralgan soch-nakleykalarni tayyorlash uchun ishlatiladi. Vazilin va lignin (yoki qog'oz salfetkalar) – grimni yo'qotishda ishlatiladi.

**6-mavzu. Grimdagi yo'nalishlar. Teatr grimi. Opera va baletda grim. Ertak grimi. Estrada grimi. Kino va Tvda grim.**

Teatr, kino, televidenie, sirk, estrada san'ati tomoshalari uchun obraz yaratish jarayonida grimning o'ziga xos o'rni mavjud. Kinematografiyada aktyorning yuzi ancha kattalashtirib, tomoshabinga yaqindan va yaqqol

ko'rsatilishi tufayli grimda yuzning har bir nozik chiziqlarigacha puxta ishlov berish zaruriyati tug'iladi. Ya'ni bunda grimchining ishi yanada murakkablashadi. Kinoda, hatto, epizod rollarida o'ynovchi aktërlarni ham juda puxta va nozik grim qilish kerak. Chunki suratga olish vaqtida xatto o'rtacha plandagi ko'rinish ham grimdagi xato va noaniqlikni bildirib qo'yish mumkin. Kerak bo'lsa, xattoki aktyorning roliga va yoshiga qarab uning qo'llariga ham nozik ishlov beriladi. Shu ma'noda kinodagi grim, teatrgrimidan o'zining ishonarliligi va nozikligi bilan farq qiladi.

**7-mavzu. Grim eskizi ustida ishlash. Grimchi va rassom. Grim va kostyum. Yara va chandik paydo kilish usuli. Gumozda, paxtada maxsus kley va grim yordamida.**

Grim ustida ishlash nimadan boshlanadi? Avvalo, grimni tanlash jarayonidan boshlanadi. Buning uchun esa qahramon «qiyofasini izlash», ya'ni u o'zida nimalarni ifodalashini aniqlab olish kerak. Buning uchun pesani diqqat bilan o'qib chiqish va personajning qiyofasi yoki xarakter jihatlari haqida konkret yozilgan joylarini belgilab olish kerak. Chunki, insonning xarakteri, millati, yoshi, hatto kasbi va biografiyasi uning qiyofasida o'z belgilariga ega bo'ladi. Har qanday pesa mazmunida bunday ko'rsatmalar mavjud bo'ladi.

**8-mavzu. Sochli buyumlarni turlari. Parik, ulama soch, sokol, mo'ylov, kiprik, kosh, krepe, yarim parik, baki va x.k.**

Parik bilan ishlashning oddiy usullarini ko'rib chiqamiz. Avvalo, parikni qanday kiydirishni bilish kerak. Buni albatta ko'zgu oldida aktyor o'tirgan holatida bajariladi. Grimchi parikni chakka qismlaridan olayotganida, uning yordamchisi ikki qo'li bilan parikni ensa qismidan ushlashi kerak. Keyin oynaga qarab, qiyshayib qolmasligiga ahamiyat bergan holda bir vaqtda parik kiydiriladi.

**9-mavzu. Yosh grim. O'rta yosh grimi. Qari grimi. To'la yuzni qaritish. Grim bo'yoklari yordamida. Ozg'in yuzni karitish.**

Mazkur bo'limda grimning ayrim texnik namunalarini ko'rib chiqamiz: rassomchilik va skulptura – hajmlilik. Eng oddiy grimlar rassomlik usuli bilan, ya'ni bo'yoqlar bilan bajariladi. Bunda yuzning skulpturasi deyarli o'zgarmaydi, o'zgarish illyuziyasi yorug'lik va soya hisobiga yaratiladi.

**10-mavzu. Kostyum, dekoratsiya, chiroq va grimning bog'likligi. Xarakterli grim. Oddiy texnik sullar bilan (g'amgin, quvnok). Sochli mahsulotlar yordamida.**

Rejissyor va rassom spektaklni (myuzikl) umumiy bezatish ishlarini rejalashtirar ekan, grimga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim. Zero grim spektaklning sahna obrazlarini yaratuvchi boshqa elementlar, ya'ni dekoratsiyalar, kostyumlar, yorug'lik kabilar bilan umumiy bezatish uslubidan chetda qolmasligi kerak. Rejissyorning o'y-fikrlariga qarab har bir p'esa o'z janri xususiyatlarini hisobga olgan holda shartli ravishda bezatilishi mumkin. Masalan, opera teatridagi Maysara grimiga opera spektaklining nafis ruhiyati va chiroyli bezatilishiga mos keladigan yorqinlik zarurligi e'tiborga olinishi kerak.

**11-mavzu. Grim tayyor bo'lgach.**

Ilgariroq aytib o'tilganidek, grim birdaniga paydo qilinmaydi, balki asta-sekinlik bilan, aktyorning «ikkinchi men»ni hosil qilish barobarida shunga parallel ravishda yaratiladi. Repetitsiyadan repetitsiyaga qarab grim mukammallashib, bir holatdan boshqasiga o'tib, akterga rolning mazmunini to'laqonli ochishga va tomoshabinga yetkazishga yordam beruvchi vositaga aylana boradi.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.

**Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzulartavsiya etiladi.*

- Sahnada erkin tarzda xarakatlana olishmashqlari.
- Obraz ustida ishlash.
- Grim. Pastij. Turmaklash.
- Grim eskizi ustida ishlash. Yara va chandik paydo kilish usuli. Gumozda, paxtada maxsus kley va grim yordamida. Zavivkalar. Issiq zavivka.

Sovuq zavivka.

- Tarixiy turmaklar. Yosh grim. O'rta yosh grimi. Qari grimi. To'la yuzni qaritish. Grim bo'yoklari yordamida. Ozg'in yuzni karitish.
- Kostyum, dekoratsiya, chiroq va grimning bog'likligi. Xarakterli grim. Yuzning ayrim joylarini o'zgartirish. Burun, daxan, ko'z va x.k. Ajinning turlari. Mimik ajin. Muskullar bo'shashishi natijasida paydo bo'luvchi ajin. Semirtirgichlar. Gumoz, paxta, rezinali moslama. Qarilik alomatlari. Qaritishtexnikasi. Ajin chiziklari. Ko'z shaklini o'zgartirish. Gaz matosi yordamida. Podvodka chiziklari. Yuzdagi do'ngliklar. Yuzdagi chukurliklar. Qosh shaklini o'zgartirish. Burun chetiga soya berish va tortish.

## III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- yangi grim texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarn imaqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olganholda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- Sahnada erkin tarzda xarakatlana olishmashqlari.

| | |
|---|---|
| | – Obraz ustida ishlash.<br>– Grim. Pastij. Turmaklash.<br>– Grim eskizi ustida ishlash. Yara va chandik paydo kilish usuli. Gumozda, paxtada maxsus kley va grim yordamida.Zavivkalar. Issiq zavivka. Sovuq zavivka.<br>– Tarixiy turmaklar.Yosh grim. O'rta yosh grimi. Qari grimi. To'la yuzni qaritish. Grim bo'yoklari yordamida. Ozg'in yuzni karitish.<br>– Kostyum, dekoratsiya, chiroq va grimning bog'likligi. Xarakterli grim. Yuzning ayrim joylarini o'zgartirish. Burun, daxan, ko'z va x.k. Ajinning turlari. Mimik ajin. Muskullar bo'shashishi nati-jasida paydo bo'luvchi ajin. Semirtirgichlar. Gumoz, paxta, rezinali moslama. Qarilik alomatlari. Qaritishtexnikasi. Ajin chiziklari. Ko'z shaklini o'zgartirish. Gaz matosi yordamida. Podvodka chiziklari. Yuzdagi do'ngliklar. Yuzdagi chukurliklar.Qosh shaklini o'zgartirish. Burun chetiga soya berish va tortish. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)**<br><br>*Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:*<br><br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• Sahnada erkin tarzda xarakatlana olish;<br>• To'g'ri obraz yaratishni o'rganish;<br>• Tarixiy turmaklar. Yosh grim. O'rta yosh grimi. Qari grimi. To'la yuzni qaritish. Grim bo'yoklari yordamida. Ozg'in yuzni karitish ***haqida tasavvurga ega bo'lish kerak***;<br>• Grim eskizi ustida ishlash. Yara va chandik paydo kilish usuli. Gumozda, paxtada maxsus kley va grim yordamida. Zavivkalar. Issiq zavivka. Sovuq zavivka ***bilishi kerak***;<br>• Kostyum, dekoratsiya, chiroq va grimning bog'likligi. Xarakterli grim. Yuzning ayrim joylarini o'zgartirish. Burun, daxan, ko'z va x.k. Ajinning turlari. Mimik ajin. Muskullar bo'shashishi nati-jasida paydo bo'luvchi ajin. Semirtirgichlar. Gumoz, paxta, rezinali moslama. Qarilik alomatlari. Qaritish texnikasi. Ajin chiziklari. Ko'z shaklini o'zgartirish. Gaz matosi yordamida. Podvodka chiziklari. Yuzdagi do'ngliklar. Yuzdagi chukurliklar.Qosh shaklini o'zgartirish. Burun chetiga soya berish va tortish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** |

| | |
|---|---|
| | • Interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br><br>1. Usmonov Sh. Sahna harakati va jangi. - "Navruz". T. 2014.<br>2. Jalilova F. Grim. - O'zDSI, 2008<br>3. Jalilova F. Grim. - O'zDSI, 2015<br>4. Andjan A., Volchanskiy. Grim va kino. - M. 1957.<br>5. Ismoilov M. Sahna pardozi. - T.2004.<br>6. Shkola izobritatelnogo iskusstva. Vipusk 10. - M. 1963.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br><br>1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60 son 28.01.2022 yil.<br>**Axborot manbaalari**<br><br>1. http://estrada-art.uz<br>2. http://www.youtube.com<br>3. http://www.uzbeknavo.uz-<br>4. http://www.uzbekteatrskm.uz-<br>5. http://www.muz-urok.ru/Noti, knigi o muzike, uchebniki po muzike |

| | |
|---|---|
| **7.** | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil "30" avgust -dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>U.A.Haydarov - O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayorlovi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>G.I.Muhamedova - O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayorlovi" kafedrasi professori<br>N.N.Sultonov - O'zbekiston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayorlovi" kafedrasi professori |